INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*
*https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG*
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

# CHINGIZ AYTMATOV VA O‘ZBEK ADIBLARI NASRIDA SARLAVHANING TUTGAN O‘RNI

**Abdullayeva Dilafro‘z Ulug‘bek qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti,filologiya va tillarni o‘qitish:o‘zbek tili yo‘nalishi, 1-kurs talabasi

dilafruzabdullayeva28@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada XX asr jahon adabiyotining zabardast vakili,o‘z asarlariga chuqur insoniy falsafa hamda g‘oyat go‘zal poetik ruh singdira olgan yozuvchi Chingiz Aytmatov ijodi haqida fikr yuritiladi va uning asarlari sarlavhalariga ko‘ra tasnif etilib,ayrim tahlillar ham keltiriladi. Sarlavhalarga ilmiy jihatdan yondashilib,ta’riflar keltiriladi va ular badiiy asarda ma’nosining ochilishiga va turlariga ko‘ra ajratiladi. Ular nafaqat Chingiz Aytmatov, balki o‘zbek adiblarining asarlaridan ko‘plab misollar keltirish orqali asoslanadi.

**Kalit so‘zlar**

sarlavha, adib, falsafiy, detal, ramziy, obraz sarlavha, kompozitsiya, badiiy asar, personaj,bosh qahramon, syujet tizmi.

**Annotation**

This article discusses the work of the outstanding representative of 20th-century world literature, the writer Chingiz Aytmatov, who infused his works with deep human philosophy and a remarkably beautiful poetic spirit. His works are classified according to their titles, and some analyses are presented. The titles are approached from a scientific perspective, their definitions are provided, and they are categorized according to their role in revealing the meaning of a literary work and their types. These analyses are substantiated not only by Aytmatov’s works but also by numerous examples from the works of Uzbek writers.

**Keywords**

title, writer (author), philosophical, detail, symbolic, image, title, composition, literary work, character, main character, plot system.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается творчество выдающегося представителя мировой литературы XX века, писателя Чингиз Айтматов, который сумел наполнить свои произведения глубокой человеческой философией и необычайно красивым поэтическим духом. Его произведения классифицируются по заголовкам, а также приводятся отдельные аналитические наблюдения. К заголовкам применяется научный подход, даются их определения, и они классифицируются в зависимости от раскрытия их значения в художественном произведении и их типов. Эти положения обосновываются не только на примере творчества Чингиза Айтматова, но и с привлечением многочисленных примеров из произведений узбекских писателей.

**Ключевые слова**

заголовок, писатель, философский, деталь, символический, образ, заголовок, композиция, художественное произведение, персонаж, главный герой, сюжетная система.

**Kirish**. Nafaqat qirg‘iz balki jahon adabiyotining zabardast vakili, o‘zidan buyuk ma’naviy meros qoldirgan, shoir O‘ljas Sulaymon so‘zi bilan aytganda, ruhning xoqoni, so‘zning podshosi, XX asrning badiiyat bobidagi yorqin siymolaridan biri ,shubhasiz, yozuvchi,davlat arbobi Chingiz Aytmatov [1.51-b] chuqur insoniy falsafa va go‘zal poetik ruh singdirilgan asarlari bilan o‘chmas iz qoldirdi.Uning ko‘plab asarlari jumladan, bir qancha munozalarga sabab bo‘lgan va hali ham tillardan tushmaydigan,fransuz yozuvchisi Louis Aragon ‘‘Jahondagi eng go‘zal sevgi qissasi’’deb ta’rif bergan ‘‘Jamila’’, urush va uning oqibatlaiga bag‘ishlangan ‘‘ Yuzma -yuz’’, ‘‘ Erta qaytgan turnalar’’qissalari, odamlarni kelajagini o‘ylashga majbur etadigan ‘‘ Asrga tatigulik kun’’, o‘tkir falsafiy ruhda yozilgan ‘‘Qiyomat’’ , ‘‘Kasandra tamg‘asi’’,’‘Tog‘lar qulaganda’’romanlari hali hanuz sevib o‘qilmoqda.Yozuvchining asarlari eng ko‘p o‘qiladigan adiblar orasida Uilyam Shekspir va Lev Tolstoydan so‘ng 3-o‘rinda turadi. XXI asr arafasida adibing kitoblari jahonning 168 mamlakatida 165 ta tilga tarjima qilinib, 830 marta jami 67,2 million nusxada chop etilgani aniqlangan [2.315-b].

Mazkur maqolamizda Chingiz Aytmatov va o‘zbek adiblarining asarlaridagi sarlavhalar haqida so‘z yuritilar ekan ,avvalo, uning o‘ziga to‘xtalib o‘tsak. Ma’lumki, sarlavha kompozitsiya unsuridir.’’Kompozitsiya deganda, tasvirlanayitgan birliklarning va nutq vositalarining badiiy asar matnidagi o‘zaro bog‘liqligi va joylashish ( o‘rinlashish) tartibi tushuniladi’’[3,133-b] . Asar annotatsiyasi, epigraf, badiiy qoliplash, lirik chekinish, qistirma epizod ham uning komponentlari hisoblanadi. Sarlavha qisqa va lo‘nda bo‘lishi , bir qarashdayoq o‘quvchini o‘ziga qiziqtira olishi kerak. Uning o‘ziyoq asar mazmunidan darak berib turishi lozim.Professor Abdug‘afurov sarlavha haqida shunday deydi:’’ Badiiy asarning nomi – semiotik kalit . Kalit esa asar mohiyati, borlig‘ini belgilovchi konsepsiyaning aniq, lo‘nda ifodasi.Ifodalanayotgan konsepsiya hayotiy, to‘liq anglab yetilgan bo‘lsa ,yozuvchi dasxati ravon,jumla-yu kalomlar mag‘zi to‘q bo‘ladi’’[4 ]

**Asosiy qism:** Ma’lumki, adabiyotning kommunikativ vazifasi mavjud.Bunda yozuvchi va kitobxon muloqotga kirishadi.Sarlavha esa mana shu muloqotning debochasi hisoblanadi. Kitobxon avvalo asar nomi bilan tanishadi,agar uni bu qiziqtira olsa , asarni o‘qiy boshlaydi.Shuning uchun ham u qisqa va aniq bo‘lishi kerak.Bejizga adabiyotshunos olim Hotam Umurov :’’ Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir.U fikrni talab etadi. Busiz go‘zal hikoya hech narsaga xizmat qilmaydi. Asar sarlavhasi bir yoki bir nechta so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan fikrni o‘zida aniq mujassam etishi, nomlanishidayoq o‘quvchini o‘ziga jalb qilishi lozim. Bu juda ham azobli, ayni chog‘da rohatlidir’’[5] deb aytib o‘tmagan.

Sarlavha ma’nosi ochilishi va ifoda turiga qarab shartli ravishda quyidagicha tasnif qilamiz va ularni Chingiz Aytmatov va o‘zbek adiblarining asar sarlavhalarida ko‘rib chiqamiz:

1. **Sarlavhaning ma’nosi ochilishiga ko‘ra:**

a) asar so‘nggida ishora qilinadigan;

b) asar mazmuniga singdirilgan;

**2. Turlariga ko‘ra:**

a) Falsafiy sarlavha;

b) Detal sarlavha ;

d) Ramziy sarlavha;

e) Obraz sarlavha;

Yozuvchi asarga nega bunday nom berganini asarning so‘ngida yoki turli o‘rinlarida ishora berib ketadi yoki asar mazmunidan kelib chiqib sarlavha tanlaydi.Biz uni asar so‘nggida mantiqan o‘ylab topa olamiz.Ko‘plab adiblar sarlavhani asar oxirlarida biron bir qahramon yoki muallif so‘zlari bilan ochib beradi.Masalan, o‘zbek adiblaridan biri,o‘zining dedektiv asarlari bilan adabiyotimiz zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan yozuvchi O‘lmas Umarbekovning ‘‘Yoz yomg‘iri’’qissasida asar nomiga oxirgi o‘rinlarda ishora qilingan:’‘*Tarnovdan jildirab suv oqa boshladi. Aliyev junjikib ketdi. – Yomg‘ir , -- dedi ovozini chiqarib u.—Yaxshiyam hovlida yotmadik.—Nima?—so‘radi Sanobarxon zarda bilan. – Yomg‘ir yog‘yapti…-- dedi Aliyev. – Voy!—Sanobarxon sapchib o‘rnidan turdi.—Kirlarim yoyig‘liq edi.—Tinadi, hozir.Yoz yomg‘iri-ku bu!—uni yupatgan bo‘ldi Aliyev.—Balo bo‘lmaydimi menga desa,barbir yomg‘irda,--Sanobarxon apil-tapil xalatini kiya boshladi.—Idorayizzi ishi bolsa bunaqa yalpayib o‘tirmasdingiz. Aliyev ichida kuldi va xotini ketidan hovliga tushdi. Iliq tomchilar xuddi shiradek yelkalariga,burniga yopishdi.Sanobarxonning tashvish tortganicha bor. Bemavrid yomg‘ir shunday shiradek tom,hovli to‘la dovdaraxtning changi aralash kirlarga dog‘ bo‘lib yopishishi turgan gap’’[6,152-153b].*Nazarimizda, Rahim Saidovning umri yozdek ‘‘issiqlik’’da, hotirjam o‘tayotgandi, Munisxon yozdagi bemavrid yomg‘irdek uning hayotini ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi va Saidovning hayotidagi, ko‘nglidagi dog‘ bo‘lib qolib ketdi. Bu kabi asarlarga ,ya’ni sarlavhasi so‘ngida ochiladigan asarlarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Chingiz Aytmtovning birgina ‘‘ Erta qaytgan turnalar’’qissasini oladigan bo‘lsak, asar davomida sarlavha haqida hech qanday belgi berilmaydi.Ammo asar oxirrog‘ida :’’-- *Turnalar!Turnalar uchyapti!. Sultonmurod yuqoriga qaradi- musaffo ,moviy cheksiz osmon kengligida oxista aylanib , parvoz qila turib saflanib,qurqurlashgancha ovoz chiqarib turnalar uchib borishardi.Katta gala turnalar yuksak parvoz qilishmoqda.Ammo samo undan ham yuksak. Bepoyon osmon kengligi va bu kenglikda xuddi barhayot orol singari suzib borayotgan qushlar to‘dasi. Sultonmurod boshini ko‘tarib qaragancha birdan ovozining boricha qichqirib yubordi:-- Ura!Turnalar!. Uchalovi ham qushlarning turnalar ekanligini yaxshi ko‘rib turgan bo‘lsalar-da, kutilmaganda, bu katta bir yangilikday bir-birlariga baqirishardi:-- Turnalar!Turnalar!Turnalar!. Sultonmurot turnalarning erta kelishi yaxshi belgi ekanligini esalb qoldi.’’*[2,148-149b] Fikrimizcha, turnalar hali 17ga to‘lib ulgurmagan bolalar.Ular urush tufayli erta turmushning zahmatini chekdilar,kattalardek og‘ir menatga mahkum etildilar.Asarda keltirilgan turnalarning erta kelishi yaxshi belgi ekanligi zidlantirilgan,chunki aynan shu voqeadan so‘ng fojeaviy holat yuz beradi,bolalarning barcha orzulari zavol topadi,mehnatlari zoye ketadi. Bundan tashqari, Chingiz Aytmatovning ‘‘Asrga tatigulik kun’’romanida va’’ Oq yomg‘ir’’ qissasida bu holatni ko‘rishimiz mumkin.O‘zbek yozuvchilaridan esa Odil Yoqubovning ‘‘Billur qandillar’’hikoyasi,’’Ulug‘bek xazinasi’’romani,Oybekning ‘‘Qutlug‘ qon’’romani, Tog‘ay Murodning ‘‘Momo yer qo‘shig‘i’’, ‘‘Yulduzlar mangu yonadi’’ ,’’Ot kishnagan oqshom’’qissalarini misol qila olamiz.

Yozuvchi doimo asar nomini asar boshida yoki so‘ngida kitobxonga ochib bermasligi mumkin.O‘quvchi asarni o‘qib, uning mazmunidan xulosa qilib,sarlavha ma’nosini anglay oladi va uni tahlil qila oladi.Chingiz Aytmatovning ,’’Raqiblar’’,’’Baydamtol sohillarida’’ hikoyalarida sarlavha ma’nosi asar mazmuni orqali ochiladi.Masalan, ‘‘Raqiblar’’asarida hikoyaning biron bir o‘rnida sarlavha bo‘lib kelgan so‘z kelmaydi. Qahramonlar Qoratoy va Sobirbekning avval do‘st bo‘lib,so‘ng hasad va turli xil gap-so‘zlar tufayli bir-birlariga raqib bo‘lib qolganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Ikki do‘stni dushmanga aylantirgan hasadning oxiri falokatga olib kelishi ham asarda namoyon bo‘lgan.’’ Baydamtol sohillarida’’ hikoyasida Nurbek hayotining o‘zgarishi,ya’ni uning ilk jasorati va chin sevgini anglab yetgan joyi aynan Baydamtol daryosi bo‘ylarida sodir bo‘ladi.Shuningdek, bu daryoning jo‘shib,shiddat bilan oqishi Asyaning harakatlariga va maqsad sari intilishiga o‘xshab keatdi. Shuningdek,asarda manmanlik va shoshqaloqlikning yomon oqibatlarini ham ko‘rishimiz mumkin.O‘zbek adabiyotida esa bu tasnifga mos Shukur Xolmirzayevning ‘‘ Dinozavr’’romani (tugallanmagan), Odil Yoqubovning ‘‘Diyonat’’, O‘tkir Hoshimovning ‘‘Bahor qaytmaydi’’,Luqmon Bo‘rixonning ‘‘Jaziramadagi odamlar’’ romanlarini misol qilishimiz mumkin.

Sarlavhani olimlar turlicha tasnif qilishadi. Adabiyotshunos olim Komiljom Hamroyev ‘‘ Badiiy asarni o‘qitishda sarlavhaning o‘rni’’maqolasida sarlavhalarni detal,obraz,syujet,ma’joziy,kinoya, tazod, falsafiy ,ruhiy-emotsional va xronotop turlarga bo‘ladi[7].Biz esa yuqorida keltirilgan turlarga ko‘ra mazkur maqolamizda tasnif qilamiz.

**Falsafiy sarlavhalar.** Bunday sarlavhaga ega bo‘lgan asarlarda umumbashariy muammolar, olam va odam munosababti haqida so‘z boradi.’’Bunday sarlavhalar yozuvchining badiiy niyatini emas,balki olam va odam tushunchasining mohiyatini anglashga da’vat qiladi’’.[7,325-b].Ularga Chingiz Aytmatovning ‘‘Qiyomat’’, ‘‘Asrga tatigulik kun’’, ‘‘Kasandra tamg‘asi’’ romanlari, Ulug‘bek Hamdamning ko‘plab asarlari,jumladan, ‘‘Muvozanant’’, ‘‘Isyon va itoat’’romanlari, ‘‘Bir piyola suv qissasi, ‘‘Musulmon’’hikoyalari, ‘‘Na’matak’’mini romani, Nazar Eshonqulning ‘‘Bahoudinning iti’’, ‘‘Maymun yetaklagan odam’’,’’Shamolni tutib bo‘lmaydi ‘‘hikoyalarini misol sifatida keltira olamiz. Bu asarlarda insoniyatni qiynab kelayotgan muammolar, ko‘zga ko‘rinmas ,ammo odamzodni mahv etuvchi modiyyat, isyon, nafs,riyo,o‘zlikni anglay olmaslik kabi masallar aks etgan. Masalan, ‘‘Qiyomat’’ romanida tarjimon va olim Asil Rashidov aytganidek, qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma’nosi, insonning insoniylik sha’ni,burchi,mas’uliyati , e’tiqod masalalarini ko‘taradi’’[2,338-b]].

**Detal sarlavhalar**.Bunday sarlavhali asarlarda birgina detal atrofida voqealar markazlashadi,ya’ni asar voqealari unga borib taqaladi.U ’’Yozuvchi niyatini amamlga oshiruvchi asosiy badiiy qurol hisoblanadi,’’[7,323-b].Detal sarlavhalarning aksariyati hikoyalarga xos. Dilfuza O‘rol qizining ‘‘Shirinlik’’, E’rkin A’zamning ‘‘Ajnabiyning jaydari olmasi’’, Asad Dilmurodning ‘‘Narvon’’,’’Qo‘ng‘iroq’’, Asqad Muxtorning ‘‘Etik’’,Erkin Usmonning ‘‘Kiprikdagi yosh’’hikoyalari nomlari detal sarlavhalarga misol bo‘la oladi.Chingiz Aytmatovning ‘‘Qizil olma’’hikoyasi ham shular jumlasidandir. Asarda qizil olma Isabekovning ushalmagan orzusi,rad etilgan sevgisi va e’tiboridir. Birgina shu meva va uning rad etilgani keyingi hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi,hatto turmushi buzilishiga olib keladi.Albatta, bu yerda ramziy ma’no ham mavjud. Bunday sarlavhali hikoyalarda detal nomiga ishora qilinmaydi yoki asar mazmunidan anglanmaydi ,uning o‘zi keltiriladi. U asarning turli o‘rinlarida kelishi mumkin ( aynan boshida yoki oxirida kelishi shart emas).Masalan, *‘‘Plakat tergovchining orqa tomonidagi devorni egallagan,katta,asosan qizil*

*rangda chizilgan ekan.Unda formadagi jasur chekist shahdam yurib boryapti,birinchi galda cho'yamdan og'ir etigi diqqatni tortadi''*.[8].Yoki *''O'pkasi ishdan chiqqan, faqat baquvvat yuargi , kuchli dori-darmonlargina uni kiprikdagi yoshdek ushlab turibdi.''*[9].

**Ramziy sarlavhalar.** Bunday sarlavhalarda asarning mazmuni ramziy obraz yoki detallar bilan beriladi.Ular asarning turli o'rinlarda kelishi va ishora qilib ketilishi mumkin.Chingiz Aytmatovning '' Oq kema'', ''Birinchi muallim''qissalari,''Oq yomg'ir''hikoyasidagi nomlar ramziy sarlavhalarga misol bo'la oladi.''Oq kema''qissasida oq so'ziga e'tibor qarataylik. Oq–ezgulik,tinchlik ramzi.Ma'lumki,adib deyarli barcha asarlarida urushni qoralaydi, tinchlikni yoqlaydi.Oq kema Nurg'ozi uchun diydor,umid ramzi bo'lgan. Bola doimo unga intiladi,unga yetishish uchun hatto baliq bo'lishga ham tayyor. Oxirgi ilinjini yo'qotgan Nurg'ozi oq kemaga borish uchun baliq bo'lib suzmoqchi bo'ladi va halok bo'ladi.Oq kemani ushalmas orzu ramzi desak ham bo'ladi.Asarda ikki holat ham qarama-qarshi qo'yilgan: farzandini xor qilish va befarzandlik.

'' Birinchi muallim''qissasini eshitishimiz bilanoq asarda ma'lum bir inson haqida so'z yuritlishini o'ylaymiz.Ammo asardagi birinchi muallim faqatgina bolalarga ta'lim bergan oddiygina o'qituvchi emas, jaholatni yorib o'tishga birinchilardan bo'lib harkat qilgan, buning uchun esa o'zi maktab qurib, bolalarni o'qishga da'vat etgan va Oltinoyning hayotidagi ilk mehribon inson bo'lgan birinchi muallim va yo'lboshchidir. Yozuvchining ''Oq yomg'ir'' hikoyasining sarlavhasi ham ramziy ma'no tashiydi. Yoshlarning '' Eski ko'chmanchi''yerlarini o'zlashtirib hosil oladigan darajada ishlov berib qilgan ulkan ishlari qut-baraka keltiradigan, ekinlarni o'stiradigan oq yomg'irga o'xshatiladi. O'zbek yozuvchilaridan Nazar Eshonqulning ''Go'ro'g'li yoxud hayot suvi''romani,Abdulla Qahhorning ''Bemor''hikoyasi,Pirimqul Qodirovning ''Uch ildiz'', Asqad Muxtorning ''Chinor'',Oybekning ''Quyosh qoraymas''romanilarini misol qila olamiz.

**Obraz sarlavha.** Bunday sarlavhalarda bosh qaharamon nomi asar nomiga ko'chadi.''Ba'zi asar nomlarida qahramonlarga urg'u beriladi, syujet yo'nalishi shu obrazlar bilan bog'liq ekanligiga ishora qilinadi.Bunday holatda ham asar nomi kompozitsiya vazifasini o'taydi''.[10,146-b].Butun bir asar syujeti bosh qahramon atrofida markazlashadi.Chingiz Aytmatovning ''Jamila''va ''Sarviqomat dilbarim'' qissalari mana shunday sarlavhali asar hisoblanadi. ''Jamila''asarida barcha obrazlar,voqea-hodisalar Jamilaning ichki dunyosini,xarakterini ochib berishga xizmat qiladi va uning atrofida birlashadi.'' Sarviqomat dilbarim''qissasida biroz o'zgacha yo'l tutilganini ko'ramiz. Asarda 2 bosh qahramon,Ilyos va Asal, haqida so'z boradi.Ko'proq Ilyosning hayoti va taqdiri yoritilgan bo'lsa-da, sarlavhaga Asal, ya'ni Ilyos tili bilan aytganda ''qizil durrachali sarviqomat dilbarim'' ko'tariladi.O'zbek nasrida ko'plab bu kabi sarlavhali asarlar mavjud.Chunonchi, Mirmuhsinning ''Ziyod va Adiba''she'riy romani, ''Cho'ri'', ''Chodrali ayol'' qissalari,''Umid'', ''Temur Malik'', ''Me'mor'', ''Degrez o'g'li'', Iqbol Mirzoning ''Bonu'', Oybekning ''Navoiy''romanlari, Mirkarim Osimning ''To'maris'', ''Shiroq'', Odil Yoqubovning ''Matluba'' qissalarida bosh qahramonlar sarlavhaga olib chiqilgan. Asar nomi sifatida obrazlarning faqatgina ismi emas, ularning kasb-hunari,laqabi ham qo'yilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, saralvha badiiy asarning muhim kompozitsion unsuri hisoblanadi.Sarlavhalarning nega shunday nomlanganligi asar so'nggida yoki mazmunidan kelib chiqib,ularning shakli va anglatayotgan ma'nosiga qarab esa falsafiy, ramziy,detal,va obraz sarlavha ekanligini bilib olishimiz mumkin.Sarlavha bizga asar haqida ilk va hali to'la

shakllanmagan tushunchani bera oladi.Obraz sarlavhali asarlarda voqealar tizimi bir personajga , ya'ni bosh qahramon bog'langanini, detal sarlavhalarda esa voqealar rivojiga birgina predmet sabab bo'lishini hamda falsafiy sarlavhali asarlarda insonni o'yga toldiruvchi, umumbashariy muammolar obrazlar va hodisalar orqali ifodalanishini sarlavhaga ko'zimiz tushishi bilan anglab olamiz va bu asarlarni to'liq o'qishga harakat qilamiz. Shuning uchun ham badiiy asarni o'qitishda sarlavhaning o'rni beqiyosdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. Ahmadjon Meliboev.Asrlarga tatigulik umr.G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2024.222 B.
2. Chingiz Aytmatov.Erta qaytgan turnalar:qissalar va hikoyalar .Yoshlar matbuoti.Toshkent –2023.352 B.
3. Umurov H.Adabiyotshunoslik nazariyasi.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.Toshkent – 2004.264 B.
4. Rasulov A.Badiiylik – bezavol yangilik.- T:Sharq,2007.
5. Umurov H.Adabiyotshunoslik nazariyasi.-Toshkent:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004. – B.136.
6. O'lmas Umarbekov.Yoz yomg'iri.''Turon zamin''nashriyoti.Toshkent – 2023. – 158 B.
7. Komiljon Hamroyev. Badiiy asarni o'qitishda sarlavhaning o'rni.//''Raqamlashtirish davrida o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari:mahalliy va xorijiy tajriba''//.321-327- B.
8. AsqadMuxtor.''Etik''hikoyasi .https://share.google/4b6PiMzlGIe1N9zwm
9. Erkin Usmon.'' Kiprikdagi yosh''hikoyasi. https://share.google/4b6PiMzlGIe1N9zwm
10. Boboyev T.Adabiyotshunoslik asoslari. ''O'zbekiston''nashriyoti .Toshkent – 2002.560 B.